

**BYUDJET MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI
OSHIRISHDA G'AZNACHILIK ORGANLARI FAOLIYATINI
TAKOMILASHTIRISH MASALALARI**

Davronbek Ikromov, Iroda Ilxamova, Aziza Xalmirzayeva
TDIU SMMT-77 guruh talabalari

Bugungi kunda davlat byudjetining mablag'lardan oqilona foydalanish samaradorligi va byudjetning moliyaviy imkoniyatlarini oshirishga erishilishida g'azna tizimi orqali xizmatlarni ko'rsatish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

G'aznachilik - bevosita davlat byudjetining ijrosini ta'minlab, davlat byudjeti daromadlarini yagona g'aznachilik hisobraqamida to'planishini ta'minlaydi va byudjet mablag'larini shu xisobraqamdan sarflanishi xamda foydalanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga, davlat tashqi va ichki qarzlarini boshqarishga xizmat ko'rsatadi. Shuningdek, byudjet mablag'larinining xarakati to'g'risida tezkor malumotga ega bo'lish ularning samarali va maqsadli sarflanishi ustidan nazorat olib borilishida G'azna xizmatining o'rni salmoqli hisoblanadi.

G'aznachilik tomonidan Moliya vazirligi vazifa va funksiyalariga mutanosib ravishda moliyaviy nazorat tashkil qilingan bo'lib, bu jarayon dastlabki va joriy nazorat ko'rinishida amalga oshiriladi. Ushbu nazoratning ikki bosqichi bo'yicha alohida-alohida bo'limlar tashkil qilingan. Ular dastlabki nazorat bosqichi ostida mamlakatimizda Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan narx siyosatini amalga oshirishga alohida e'tibor beriladigan yuridik majburiyatlarni shakllanishini nazorat qiluvchi bo'lim va joriy nazorat bosqichi ostida tilga olinadigan byudjet mablag'larini oqilona boshqarish va ularni belgilangan maqsadlarga sarflanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi moliyaviy majburiyatlarni moliyaviy ta'minoti ustidan amalga oshiriladigan nazoratni ta'minlovchi bo'limdir.

G'aznachilik tomonidan amalga oshiriladigan (dastlabki va joriy) moliyaviy nazorat orqali byudjet tashkiloti o'ziga ajratilgan mablag'larini amalda maqsadsiz va noo'rin sarflab bo'lmasligini oladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdekk, g'aznachilik davlat byudjetining daromadlari va xarajatlarini boshqarishni amalga oshiradigan davlatning maxsus moliyaviy xizmati bo'lib, u orqali byudjet daromadlarini jamlashga va xarajatlarini oqilona sarflashga erishiladi va byudjet mablag'larini o'zga maqsadlarga va samarasiz sarf qilinishini oldi olinadi. Shuningdek, vaqtinchalik kassa uzilishlariga chek qo'yiladi, barcha birlamchi to'lov hujjatlari g'azna qo'lida bo'lishi va byudjet ijrosining maksimal darajada asoslanganligini ta'minlaydi. G'aznachilik xizmati byudjet mablag'lari oqimlarini samarali boshqarish, byudjet xarajatlari joriy ijrosiga nisbatan kamroq kassa qoldiqlari

bilan qanoatlanish va uning natijasida davlat byudjetini balanslikka erishishga imkoniyatini yaratadi.

G'aznachilik bo'limlari tomonidan tovar (ish, xizmat)larning narxlarini samarali monitoringini o'rnatish uchun respublikamizda yagona axborot bazasini tashkil etilishi, narxlarning haqqoniy baholanishi imkoniyatini yaratgan holda byudjet mablag'lari samarali ishlatalishi bilan bog'liq xizmatlarni amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Yuqori darajada g'azna xizmatini amalga oshirish byudjet tashkilotlari rahbarlarining bilimlarini kengaytirishni talab qiladi, byudjet mablag'laridan joriy xarajatlaridan samarali foydalanishni o'rgatadi va asossiz kreditor qarzdorliklar vujudga kelishiga yo'l qo'ymaydi. Mamlakatimizda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini salbiy oqibatlarini bartaraf etishda byudjet mablag'larini maqsadli tejab-tergab sarflanishi, debtor-kreditor qarzdorliklarini oldini olish kabi asosiy aniq natijalarga erishishida ham g'azna xizmatining roli katta bo'ldi. Shuningdek, byudjet mablag'larining hisob raqamlarda harakatsiz qolish holatlariga barham berildi.

Xozirga kunda byudjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida g'azna xizmatiga ba'zi bir qo'shimchalar kiritish orqali byudjet tashkilotlariga sifatli xizmat ko'rsatishni, g'aznachilik organlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarga engillik kiritishni xamda byudjet mablag'laridan samarali foydalanish darajasini yanada yaxshilashga erishilgan bo'lar edi.

Bu borada fikrimizcha, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Byudjet sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida g'aznachilik faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida byudjet tizimida bir qancha o'zgartirilishlar amalga oshirildi: davlat xaridlari tizimiga, byudjet klassifikatsiyasiga, Moliya va G'aznachilik organlari o'rtasidagi vakolatlar taqsimotiga o'zgartirishlar kiritildi. Bu esa o'z navbatida ayrim huquqiy hujjatlar amaliy faoliyatdan ortda qolishiga sabab bo'lmoqda. Xususan g'aznachilik faoliyatini tartibga soluvchi yo'riqnomalaridan Adliya vazirligidan 2009 yil 16-sentyabrda 2007-son bilan ro'yxatdan o'tgan "Davlat byudjeti g'azna ijrosi qoidalari" ning bandlari bilan yuqoridagi o'zgarishlar o'rtasida tafavudlar mavjud bo'lib, "Davlat byudjeti g'azna ijrosi qoidalari" ning aksariyat bandlari bugungi kun talablariga javob bermaydi. Bu o'z navbatida me'yoriy-xuquqiy xujjatlar borasida ham takomillashtirish ishlari olib borilishi kerakligani taqazo etadi.

2. G'aznachilik xizmatini samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy shartlaridan biri zamonaviy kompyuter texnologiyasi va dasturiy ta'minotdan foydalanishdir. Shuning uchun bugungi kunda g'aznachilik faoliyatini axborotlar va dasturiy ta'minotlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuni aytib o'tish kerakki, g'aznachilik organlarini zamonaviy kompyuter texnologiyasi, dasturiy ta'minotlar va aloqa uzatish

vositalari g'aznachilikni takomillashtirish yuzasidan olib borilayotgan islohotlar bilan mos ravishda takomillashtirib borishni taqazo etadi. Bu jarayonda dasturiy ta'minotlarni takomillashtirish orqali moliyaviy nazoratni amalga oshirishda katta samaraga erishish mumkin bo'ladi.

3. G'azna-4 dasturiga chekni kiritish uchun shaxsiy hisobvaraqnini tanlangandan keyin moddiy javobgar shaxsni pasport seriyasi, berilgan vaqt, ismi familiyasi va pasport muddatlari dasturda to'g'ridan-to'g'ri aks etilsa (ya'ni bir marta kiritib qo'yilgandan keyin), unda moddiy javobgar shaxsning hujjatlari to'g'ri kiritilishi va hujjat muddatlari nazorat qilish bilan bog'liq xizmat ko'rsatish jarayoni engillashgan bo'lar edi.

4. Davlat byudjeti xarajatlarining moliyaviy nazoratini kuchaytirish uchun, avvalom bor, ushbu nazoratni olib boruvchi xodimlarning malakasini ish sifatini oshirish orqali moliyaviy nazorat tizimiga kuchli ta'sir o'tkazish mumkin. Xodimlar malakasini shakllantirish va oshirishni taqozo etuvchi muammolarni bartaraf etish uchun har bir bo'lim faoliyatini o'zida aks ettiruvchi uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish lozim. Har bir boshqarma miqyosida ichki malaka sinovlarini o'tkazishni tashkil qilish ham foydadan xoli bo'lmaydi.

5. Byudjetdan mablag' oluvchi byudjet tashkilotlarining har bir soha bo'yicha belgilangan shartnomalar blankasi O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlari faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuning moddalari talablari asosida "Davlat byudjetining g'azna ijrosi qoidalari"ga ilova qilish bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatish orqali ushbu ro'yxatga olinadigan shartnomalarni huquqiy jihatdan va mazmunan talabga javob bergen darajaga ko'tarish mumkin bo'lar edi.

6. UzASBO dasturini yanada takomillashtirib, byudjeti mablag'laridan foydalanishda inson omilining kamayishiga turtki bo'ladigan ko'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi natijasida samarali monitoringi amalga oshirishga hamda mablag'lar sarflanishining ishonchli moliyaviy nazoratini tashkil etishga erishish mumkin.

7. Byudjet mablag'laridan foydalanishi jarayonida moliyaviy nazoratni ta'minlashda muhim bo'lgan javobgarlik markazlarini aniqlashtirish masalasida xorijda katta amaliy tajriba to'plangan. Bu borada asosiy e'tibor ko'pchilikning javobgarlik markazlari ko'p bo'lishiga qaratilgan. Jumladan, g'aznachilik organlari xodimlari bilan byudjet tashkiloti xodimlari sonida doim xam sezilarli farq kuzatilgan. Bunda xuddi bizdagi kabi byudjet tashkiloti xodimlari ko'pchilikni tashkil etadi. Shunday ekan, asosiy javobgarlik ular zimmasida bo'lishi lozim. Bu holatni bizning amaliyotimizga ham qo'llash lozim. Byudjetdan mablag' oluvchilar mansabdor shaxslarini javobgarlik markazlarini aniq ajratib ko'rsatish orqali ularni mas'uliyatini oshirishga erish mumkin. Qolaversa, g'aznachilik xodimlari tomonidan maqsadsiz

xarajat oldi olingen holatda, mazkur xarajatlarni amalga oshirishga uringan byudjet tashkilotlari mas’ul xodimlarining ish haqlaridan jarima sifatida ma’lum bir foizda jarima undirilib, bu summalar g’aznachilik bo’linmalarida maxsus hisobraqam ochilib, o’tkazib borilsa hamda ushbu mablag’lar g’aznachilik bo’linmalarini xarajatlari uchun va yaxshi xizmat ko’rsatgan xodimlarga rag’batlantirish uchun sarflansa, bu xizmat sifatini yanada oshirgan bo’lar edi.

8. Byudjet tashkilotlari hisobchilarini byudjet tizimi bo'yicha huquqiy savodxonligi, amaliy bilim va ko'nikmalarini oshirib borish ham nazorat ishlari samaradorligiga ta'sir etadi. Ushbu masalani amalga oshirishda malakali moliya organlari xodimlaridan iborat ishchi guruh tuzilib, byudjet tashkilotlari buxgalterlari o'rtasida turli xil nominatsiyalar(masalan, “Eng exshi buxgalter”, “Eng intizomli byudjet tashkiloti”) bo'yicha davriy tanlovlari o'tkalib turishi maqsadga muvofiqdir. Bu orqali esa moliya va g'aznachilik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar to'g'risida byudjet tashkilotlari rahbar va bosh hisobchilari o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantirish orqali ularning huquqiy bilim va kasbiy malaka, ko'nikmalarini oshirishga erishiladi.

9. Yuridik majburiyatlarni bajarish uchun xarajatlar smetasida yuridik xizmatlarga xarajatlarni qo'shish va huquqshunoslarni imzo chekish asosligini nazorat qilish, ya'ni qo'yilgan huquqshunoslarni imzolarga qonun doirasida va O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi bo'yicha to'liq javob berishi zarur bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda davlat byudjeti mablag'laridan foydalanishda asosiy ustuvor yo'nalish sifatida davlat byudjeti mablag'laridan foydalanish jarayonining oqilona tashkil qilinganligi va byudjet mablag'laridan foydalanishda belgilangan maqsadlarga erishishni qay darajada ta'minlanganligiga ahamiyat qaratilmoqda. Bu esa o'z navbatida byudjet mablag'laridan foydalanish jarayoning nechog'li mukammal tashkil qilinganligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Shu bois, so'nggi yillarda davlat byudjetining g'azna xizmatini takomillashtirish orqali mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarni chuqurlashtirishga, ularni o'z vaqtida maqsadli moliyalashtirishga erishilmoqda.

Qolversa, g'aznachilik xizmatini joriy qilish evaziga mahalliy byudjet resurslarini boshqarish samaradorligini oshirishda ham jiddiy ilgari siljish yuz berdi. G'aznachilik xizmatini joriy qilinishi byudjetni tayyorlash jarayonini takomillashtirish borasida byudjet siyosatini olib borishni, byudjet xizmati sifatini takomillashtirish va xarajatlarni g'aznachilikning yagona hisob raqami printsipi asosida amalga oshirishda qisqa muddatli to'lovlar rejasini joriy qilishda, yagona axborot tizimini joriy etishda byudjet ijrosini hisobga olishda va hisobot tayyorlashni yaxshilashda, davlat qarzini tahlil qilish va rejalahtirishni takomillashtirishda qo'l kelmoqda.

Fikrimizcha, barcha byudjet daromadlarini yagona g'azna hisobvarag'ida jamlash va u orqali davlat byudjeti xarajatlari to'lovini amalga oshirish, shuningdek, davlat byudjetining yagona hisobvaraqlar rejasi asosidagi ijrosi to'g'risida buxgalterlik hisob-kitobi va hisobotini tashkil etish yagonaligini ta'minlash, sohaga yangi axborot texnoligiyalari va dasturiy ta'minotlarni joriy etish, g'aznachilik tizimida faoliyat yurituvchi xodimlarning kasbiy malakalarini doimiy ravishda oshirib borish byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan samarali nazoratni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. T.S. Malikov, O. Olimjonov. Moliya - O 'quv qo 'llanma. T.: "Iqtisod-moliya, 2012
2. T. Malikov, N. Xaydarov. Davlat byudjeti - T.: " Iqtisod-moliya, 2007
3. A. Vaqobov, T. Malikov. Moliya: darslik. - T.: Nozir, 2011
4. T. Malikov, N. Haydarov - Budget daromadlari va xarajatlari. O 'quv qo 'llanma, Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA, 2007
5. T.C. Маликов, П.Т. Жалилов. Бюджет-солик сиёсати. - Тошкент: Академнашр, 2011
6. Malikov TS, Moliya HN. umumdavlat moliyasi./O 'quv qo 'llanma. Toshkent: "Iqtisod-moliya. 2009;556.
7. Т.Маликов, О.Олимжонов. Молиявий менежмент. - Т.: Академия, 1999
8. А.Ваҳобов, Т.Маликов. Молия: умумназарий масалалар - Ўкув қўлланма. Тошкент,"Iqtisod-moliya, 2008
9. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент: "Шарқ. 2010;804.
10. Yunusovich OR. Abduazimova Farzona Axmadqul qizi. Davlat maqsadli jamg'armalarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati.". "Science and Education" Scientific Journal/ISSN. 2022 Jun:2181-0842.
11. Ўроқов, У. "Фазначилик тизимида бюджет маблағларидан самарали фойдаланиш масалалари.". (2017).
12. Ўроқов, У. "Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари.". (2017).
13. Urokov, Uchqun Yunusovich, and Zulayho Abdujobir Qizi Tursunova. "Actual issues in the management of external debt." Science and Education 3.12 (2022): 1023-1029.
14. Ўроқов У. Файбуллаев О.Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўкув қўлланма. Тошкент: Baktria press.-21 б, 2016
15. Ўроқов У. и др. Маҳаллий бюджетлар даромадларининг ўзига хос хусусиятлари манбани оширишда инновatsion менежментни ривожлантириш//Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 5-8.

16. У. Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишни такомиллаштириш йўллари: И. ф. н. илм. дар. ол. уч. ёз. дисс. Автор. 2020
17. У. Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг хуқуқий асослари. - Science and Education, 2023. Т4, №5, 1550-1564
18. Ўроқов, У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари.“. Молия тизимини ривожлантиришнинг замонавий тенденсиялари ва истиқболлари”. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022йил, 27.
19. Ўроқов, У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари.“. In Ҳудудларни ижтимоий-иктисодий ривожланишида молиянинг роли” мавзусидаги республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
20. Ўроқов, У. "Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари.«." (2017).
21. Ўроқов, У. "Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи курсаткичлар.“." (2020).
22. Ўроқов, У. "Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий қарашлар.“." Ўзбекистоннинг халқаро молия тизимига интегратсиялашувни кучайтириш йўллари" мавзусидаги республика илмий-амалий конференция. ТМИ. 2020.
23. Уроков, У. "Махаллий бюджетлар молиявий баркарорлигини белгиловчи курсаткичлар.“." Молия-кредит тизимининг иктисодиётнинг реал сектори билан узаро муносабатларини институционал ривожлантириш" мавзусидаги халқаро (2020).
24. Ўроқов У. Ўзбекистон Республикасининг бюджет кодекси: моҳияти, аҳамияти ва афзаллликлари.“. Молия” журнали. 2014.
25. Хайдаров Н. Давлат молиясини бошкариш. Т.:«Академия. 2005.
26. Хайдаров Н. Т. Маликов-Бюджет: тизими, тузилмаси, жараёни. Ўқув қўлланма. 2007.
27. G‘aybullayev, U O‘roqov.O ‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O ‘quv qo‘llanma. - Т.: Baktriapress, 2016